



DORIVOR TUKLI ERVA (AERVA LANATA) O'SIMLIGINING SURXONDARYO SHAROITIDA UNIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI

Abdurahmonov Sanjar Bahrom o'g'li

Tel:(+998919027174) sanjarabdurahmonov@gmail.com

Annotatsiya: Tukli erva (*Aerva Lanata juss*) o'simligi hozirda o'lkamizga madaniylashtirilgan dorivor o'simlilardan bir hisoblanadi tarkibida inson salomatligi uchun har xil guruhga mansub biologik faol moddalar bo'lishi yanada katta qiziqish uyg'otmoqda. Xususan tarkibi alkaloidlar flavonoidlar (rutin), efir moyi va boshqalarni saqlagan bu o'simlik tabobatda toksinlarga qarshi, sistit, uretit, surunkali pielonefrit, spazmalotik tasirlarga ega, ildizi bosh og'rigi uchun xalq tabobatida ishlatiladi. Ushbu maqolada o'simlikni yetishtirishda zamonaviy agrotexnologik usullardan foydalangan holda yuqori sifatdagi chora-tadbirlar olib borilmoqda. Maxsulotning foydalilik xususiyatlarini saqlab qolishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Aerva Lanata*, dorivor, madaniylashtirish, iqlim, ozuqa, agrotexnologiya, tuproq, urug', hosildorlik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga etkazish maqsad qilib olingan bo'lib bunda sifatli ozuqabop va dorivor o'simliklarning o'rni alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-oktyabrdagi "Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5269-sonli qarorida ham dorivor o'simliklarni etishtirish va qadoqlash ko'zda tutilganidek, ilg'or resurs tejankor texnologiyalarni qo'llash orqali etishtirish va qayta ishlash asosida sifatli mahsulotlar olish asosiy vazifalarimizdan biridir. Shu maqsadda, Surxondaryo viloyatining tuproq-iqlim sharoitida mos bo'lgan dorivor o'simliklardan Tukli erva (*Aerva lanata L.*) – (*Amaranthaceae Juss*). oilasiga mansub oilasiga mansub o'simligidir. Xalq tabobati va rasmiy tibbiyotda bu o'simlikdan keng foydalaniladi. Chunki, chet-el farmasevtika va parfyumeriya sanoatida uning er ustki xom-ashyolaridan turli-xil dori vositalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.



1-rasm. Tukli erva (Aerva lanata L.)

Tadqiqotning maqsadi: Surxondaryo viloyati Termiz sharoitida *Aerva lanata* L. o'simligini urug' unuvchanligini dala sharoitida o'rganish hamda turli tuproq-iqlim sharoitida etishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari: Dala sharoitida urug'larning unuvchanligini aniqlash. Generativ ko'paytirish usullarini va bioekologik xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqot ob'ekti: *Tukli erva (Aerva lanata L.) - Амарантовые (Amaranthaceae Juss)*. oilasiga mansub o'simlikdir. O'zbekistonda Tukli erva bir yillik o't o'simlik sifatida o'stiriladi. Ko'p yillik, shoxlangan va bo'yi 55-70 smga yetadigan o't o'simlik. Barglari lansetsimon, ovalsimon yoki ellipssimon, tekis qirrali bo'lib, qisqa bandi yordamida poya va shoxlarda qarama-qarshi joylashgan kuchsiz hidga ega.. Gullari mayda, och yashil rangli bo'lib, qisqa boshqosimon to'pguliga o'rnashgan. Urug'i yaltiroq, qora rangli. O'simlikning hamma qismi sertuk, kulrang.

Tadqiqot uslublari: Termiz sharoitida urug'lar 2022-yil aprel oyida 60 smlk egatlarga 100 dona urug' ekildi 2 marotaba.

Tadqiqot natijalari va tahlili.

Yetishtirish agrotexnologiyasi: Urug' unuvchanligi bizga ma'lumki birorta madaniylashtirilgan o'simlikni dala maydonlariga ekishga tavsiya berish uchun unuvchanlikni aniqlash muhim hisoblanadi. Shuning uchun birinchi navbatda tadqiqot olib borayotgan ushbu ajoyib dorivor o'simligimizning urug' unuvchanligi o'rganildi.

Aerva lanata L. o'simligi urug'ining uzunligi 2,2-3 mm, yaltiroq, qora rangda bo'ladi. O'lchov ishlarini olib borganimizda 1000 dona urug'ining og'irligi 1,2-1,5 grni tashkil etdi.

Unuvchanlikni aniqlash uchun 100 dona urug' 2022-yil aprel oyida 18-20 °C haroratda ekildi. Urug' dastlabki 10 kunlikda urug'larning 10-15 % unib chiqdi.



Unib chiqish muddati 10-35 kunning o'z ichiga oldi va shu vaqt oralig'ida 70-75 % urug'lar unib chiqishiga erishilgani aniqlandi.

Urug'idan ko'paytirishda tukli ervani harorat 15-20 °C etganda 60-70 sm egatlarga chuqurligi 0,5-1 sm qilib gektariga 1,2-1,8 kg ekish samarali usul ekanligi aniqlandi. Urug'ni ekishdan oldin ivitib ekish kerak ekanligi yoki dala sharoitida egatlarga ekishda egatlardagi namlikning 100 % bo'lish ekanligi aniqlandi.




2-rasm. Urug'ning tashqi ko'rinishi va unib chiqishi.

Yosh nihollar bioekologiyasi: Sepilgan urug'lar 10-35 kunda unib chiqdi va urug'palla barglar hosil bo'layotgani kuzatildi. Asosiy ildizi 2-3 mm uzunlikda bo'lib, maysaning umumiy uzunligi 1-1.5 sm atrofida qayd etildi. Kuzatishning 10-12 kunlari maysa urug'palla barglarining uzunligi 2-4 mm ni tashkil etdi. Maysa davridan boshlab ularning tukchalar bilan qoplanganligi kuzatildi. Maysaning asosiy o'q ildizi 1-2 sm, yonlama birinchi tartibli yon ildizchalar esa 0,2-0,3 mmga etdi. Ayni shu paytda o'simlikning umumiy uzunligi 1.0-1.2 sm ga etganligi kuzatildi. Ularda dastlabki chin barglarning namoyon bo'lishi rivojlanishning 12-15 kunlari kuzatilganda, barg plastinkasining ustki qismi mayda tukchalar bilan qoplangan. Chin barg shakli uzunchoq, eni 0,4 mm ni uzunligi 0,7 mm ni tashkil etadi. Shu vaqtda asosiy ildiz 3,5-4 sm ni yon ildizlar 0,8-1 sm ga etganligi ma'lum bo'ldi. Maysalar asta-sekin o'sib rivojlandi va ularning umumiy uzunligi 3-3,8 smni tashkil etdi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlar natijasidan shuni ko'rsatishimiz mumkinki, dastlabki vegetatsiya yilida o'simliklar asosiy poyasining uzunligi 25-32 sm, barglar soni 12-18 taga yetganligini kuzatildi. Asosiy poya o'qi pastki qismining yog'ochlanishi 3-6 sm va shu joydan to'kilgan barglarning soni o'rtacha 3-6 tani tashkil etdi. Dastlabki vegetatsiya yilida birinchi tartibli novdalar soni 11-13 ta va uzunligi 15-17 sm, barglar soni 17-21 taga yetdi. Barg plastinkasining uzunligi 2-3 sm, barg bandining uzunligi 1.6-1.8 sm ni tashkil etdi.

Shunday qilib, ilmiy izlanishlar tukli erva o'simligining sug'oriladigan, unumdorligi yuqori, o'rtacha mexanik tarkibli tuproqlarda yetarlicha o'sib rivojlanishini ko'rsatdi. Termiz tuproq-iqlim sharoitida o'simlik urug'ini kuz va erta bahor oylarida ekish samarali natija beradi.



3-rasm. *Aerva lanata L.* Urug' unuvchanligi.

Urug'idan ko'paytirilganda rivojlanishning dastlabki yili generativ davri qayd etilmadi. Vegetatsiya yakunida yetishtirilayotgan maysa ko'chatlarni saqlanishi yuqori - 75-83% ekanligi qayd etildi. Hozirgi kunda dala tajriba yer maydonida o'simlikning zaruriy agrotexnik tadbirlari olib borilmoqda va ko'paytirishning turli usullari o'rganilmoqda.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son .
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-oktabrdagi PQ-5269-son .
3. Axmedov O', Ergashev A., Ablazov A., Yulchieva M. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi. Toshkent -2009. 34-35b.
4. Murdaxaev YU.M. //O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar. Toshkent. "Fan". 1993. 39 b
5. Nurmatov N. va boshqalar. Dala tajribalari uslubiyati. T.: 2007.
6. Toshmatova Z. Bioekologicheskie osobennosti *Aerva lanata*.